

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"Tasdiqlayman"

Navoiy davlat pedagogika

instituti rektori

B.B. Sobirov

**KO‘ZI OJIZ ABITURIENTLARNING KASBIY (IJODIY) IMTIHON
NATIJALARINI BAHOLASH
MEZONI**

“Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati”, “Musiqqa nazariyasi” fanlari

60111300 - “Musiqqa ta‘limi”

bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining barcha shakllari uchun

Dastur Navoiy davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. (2023 yil _____dagi _____-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:NavDPI "Musiqqa ta'limi" kafedrasini mudiri,
dotsent v.b B.N.Umurzakov

NavDPI "Musiqqa ta'limi" kafedrasini
dotsent v.b O.A.Xayitov

Taqrizchilar: SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti,
pedagogika fanlari doktori Sh.N.Mustafayev

Buxoro Davlat Universiteti "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat"
kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) F.G Nurullayev

I. Kirish

60111300 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bakalavr darajasini olish uchun O'zbekiston Respublikasi pedagogik oliy ta'lim muassasalariga kiruvchi abituriyentlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur "Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati", "Musiqa nazariyasi va solfedjio" fanlari asosida abituriyentlarning musiqiy ta'lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

II. Ijodiy imtihonlarning maqsad va vazifalari

60111300 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda musiqa ta'limi sohasi kasbida faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur ijodiy imtihonlarni o'tkazishning asosiy vazifasi abituriyentlarning boshlang'ich musiqa savodi, biror bir cholg'u asbobida ijro eta olish ko'nimasini, xonandalik mahoratini aniqlash, musiqa asarlari namunalarini bilish, o'zbek va chet el ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, vokal, xor, an'anaviy xonandalik mahoratini, ansambl, orkestr, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur sozanda va xonandalar ijodiy faoliyatini, musiqiy atama va iboralarni, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va an'anaviylik tendensiyalarini, zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni va baholashni nazarda tutadi.

Bunda "Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati" fanidan cholg'u ijrochiligi bo'yicha biror bir cholg'u asbobida o'zbek yoki chet el musiqa asarlarini ijro eta olish ko'nikmasini egallaganlik darajasi; ijro etayotgan musiqa asarini toza, sof hamda dinamik, temp va ritmik jihatdan aniq va to'g'ri ijro etishi; musiqa cholg'usini chuqur his eta olishi; ritm, garmonik ohanglarni ijro etishda barmoq harakatlarini to'g'ri bajarishi; ijro etayotgan asarning muallifi, cholg'u asbobi turi, nomi, tarixi haqida hamda milliy cholg'ular to'g'risida aniq ma'lumotlarga egaligi. Xonandalik bo'yicha xonandalik janrlari; ijro etayotgan asarning nomi, muallifi, janri xususida batafsil ma'lumotlarga ega ekanligi; ijroda sof intonatsion qoidalarga to'la amal qilishi, tonallikni ushlay olish ko'nikmasiga egaligi; tajribasi, ovoz, nafas va ularni ishlata olish mahorati, bu borada orttirgan tajribasi; vokal, xor, estrada, an'anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olish mahorati, yo'llari, maktabi, tajribalari haqida bilimlarga egaligi; bastakor, kompozitorlar va ularning faoliyati, ular ijodida yuzaga kelgan musiqiy asarlarni bilishi;

"Musiqa nazariyasi va solfedjio" fanidan mazkur fanda musiqiy tizim, tovush, nota yozuvi qonun-qoidalari, metr, ritm, temp, lad, tonallik, tonalliklar kvarta-kvinta doirasi, turli xil major va minor gammalar, xalq lادلari, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, tonalliklar pog'onadoshligi, modulyatsiya va og'ishma, transpozitsiya, kuy, musiqa bezaklari xususida nazariy bilimlar; bir ovozli kuylarni, tovushdan va tonallikda major, minor hamda xalq lادلari tovushqatorlarini, xromatik

gamma, turli xil interval va akkordlarni yechilishlari bilan yozma ravishda va fortepianoda tuzib sof intonatsiyada kuylash, musiqa elementlarini tinglab aniqlash ko'nikmalar, talab etiladi.

Shular bilan bir qatorda ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, musiqa san'atining inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yoshlarni aqliy, axloqiy, jismoniy va ma'naviy kamol topishidagi roli; milliy ong, milliy tafakkur, milliy g'urur, Vatanni sevish uni ardoqlash hislarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari; musiqa san'ati vositasida milliy g'oyani o'quvchi-yoshlar qalbiga singdirib borish yo'llarini tasavvur qila olishlari; Respublikamizning mustaqillik yillarida O'zbekistonda san'at va musiqiy ta'limni yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

III. Abiturientning bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan bo'lishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, *musiqa elementlarini* kuylash va tinglab aniqlab berishi lozim.

Ijodiy imtihon o'tkazish tartibi

Kasbiy ijodiy imtihon uchta fan doirsida o'tkaziladi, har bir fan bo'yicha abituriyent bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo'yiladi. To'plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

"Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati" fanlari bo'yicha ijro etiladigan asarlar ro'yxati (repertuar), abituriyent tomonidan yozma tarzda imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

"Musiqa nazariyasi va solfedjio" fani bo'yicha egallagan nazariy bilimlari og'zaki yoki yozma, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo'yicha turlicha bo'lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo'shimcha tarzida O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi kuyini chalib, kuylab berishi, O'zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarida respublikamizda musiqa san'atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o'z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

Izoh: OTM kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg'ular bilan ta'milash majburiyatini olmaydi. Abiturientlar ijro etadigan musiqa cholg'usini o'zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik

sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimni baholaydi.

Taxminiy asarlar ro'yhati Fortepiano:

1. Yirik shakldagi asarlar - N.Zakirov "Sonata", F.Nazarov "Kontsert", M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gaydn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlari sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar - I.S.Baxning "Frantsuz syuitalari", ikki va uch ovoqli invensiyalari, XTK 1-tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel, R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushel kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pesa - F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grig, P.I.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy "So'zsiz qo'shiq", X.Azimov "Noktyurn", P.Xalikov "Dutor navolari" va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi,

I. Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlar etyudlari.

0'zbek xalq cholg'ularida:

1. Yirik shakldagi asarlar - Maqom mushkulotlari, mumtoz cholg'u asarlari, o'tmish bastakorlar ijodidan namunalar, 0'zbekiston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. 0'zbek xalq kuylari - "Dugox", "Segox", "Yolg'iz", "Navruzi ajam", "Rajabiy", "Kushchinor", "Tanovar", "Munajat" va b.

3. 0'zbekiston kompozitorlarining asarlari - F.Vasilev obrabotkasi "Dutor bayoti", M.Bafoev "Poema", F. Nazarov "Poema"si, D.Zakirov "Qo'shiq va raqs", "Ko'rmadim" T.Jalilov, "Otmagay" va boshqalar.

V. 1.2. Xonandalik mahorati

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo'yicha turlicha bo'lgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, 0'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, 0'zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilish va mustaqillik yillarida respublikamiz san'atini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o'z fikrini bayon etishi talab etiladi.

Izoh: Abituriyentlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o'zi ixtiyoriy cholg'u asbobida cholib ijro qilishi mumkin. Abituriyentlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta'minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik

sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimni baholaydi.

Xuddi shuningdek, "Cholg'u ijrochiligi va xonandaligi" fani bo'yicha xonandalik asarlari alohida va cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijro etilgan asarlar alohida ijro etiladi va baholanadi. Baholar qaydnomada aks ettiriladi.

b) Taxminiy asarlar ro'yxati

1. Shashmaqom, Chormaqom, Xorazm maqomlari turkumlari, O'tmish bastakorlar ijodi namunalari, Mumtoz ashulalar, O'zbek va chet el kompozitorlari operalaridan ariya, romans, estrada qo'shiqlari.

2. Umumta'lim maktabining 5-, 6-, 7- sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlar.

3. O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari - "Omon yor", "Tanovar", alla, to'y marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h.

II.2. Musiqa nazariyasi

a) Baholash mezonlari

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval, akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvi, nota cho‘zimlari va ularga qo‘yiladigan tovushlar cho‘zimini uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho‘zimlarning turkumlanishi. Oddiy, Murakkab, Aralash va o‘zgaruvchan metrlar va o‘lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg‘un va noturg‘un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og‘ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish. Major, minor, xalq ladi tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko‘rsatilgan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin “Birovozli solfedjio” o‘quv qo‘llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

VII. Ko‘zi ojiz abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezonlari

Yuqorida ta’kidlanganidek 60111300 - “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u asbobida asar ijro etish, qo‘shiq kuylash, musiqa nazariyasi fanlaridan abituriyentlarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko‘zi ojiz abituriyent ijodiy imtihon yakuni bo‘yicha jami 5 baho to‘plash imkoniga ega. To‘planadigan baho predmetlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) Cholg‘u ijrochiligi - 5 baho;
- b) Qo‘shiq kuylash - 5 baho;
- s) Musiqa savodxonligi - 5 baho;

Umumiy 5 bahoning 2 va undan past bahoga baholangan abituriyentlar o‘qishga tavsiya etilmaydi.

Baho	Abiturientning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e'tiborga olinadi
5 (a'lo)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to'liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo'shiq kuylash bo'yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovoz kengligini va kuchini namoyish etish uchun) qo'shiq ijro etilishi, Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri hamda to'liq bajarilganligi, solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yuqori bo'lsa.
4 (yaxshi)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri bajarilsa, Solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yetarli bo'lsa.
3 (qoniqarli)	Cholg'uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdagi (xarakterdagi) asarlar bo'lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so'zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo'l qo'yilsa.
2 (qoniqarsiz)	Cholg'uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo'l qo'yilsa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur'atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo'l qo'yilsa va ifodasiz ijro etilsa.

VII. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Abiturient kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'ati imtihon natijalari e'lon qilingan kundan so'ng 24 soat davomida yozma murojaat qilishi mumkin. Murojlat faqat o'zining to'plagan ballari yuzasidan bo'lsa, qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi a'zolari oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

